

“IKKI ESHIK ORASI” ASARIDAGI OBRAZLAR TALQINI.

Mardonova Nilufar Ilhomjon qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishi
1-bosqich talabasi.
nilufarmardonova707@gmail.com

Annotatsiya: *O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani inson umrining mazmuni, urush davri fojialari va xalqimizning ma’naviy qiyofasini yuksak mahorat bilan ochib bergan asardir. Romanda Ikkinchi jahon urushi yillaridagi o‘zbek qishlog‘i hayoti, qahramonlarning murakkab taqdirlari va ayanchli qismati turli personajlar tili bilan hikoya qilinadi. Muallif insonning tug‘ilish va o‘lim o‘rtasidagi (“ikki eshik orasi”) qisqa, ammo sinovlarga boy yo‘lini falsafiy mushohada etadi.*

Kalit so‘zlar: *Inson taqdiri, urush fojiasi, muhabbat, vafodorlik, xiyonat, ayriliq, o‘lim.*

“Ikki eshik orasi” — o‘zbek xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov ijodining yuksak cho‘qqilaridan biri bo‘lib, unda inson taqdiri, urush yillarining murakkab voqealari, xalqning ruhiyati va ma’naviy olami teran badiiy mahorat bilan yoritilgan. O‘.Hoshimov “Ikki eshik orasi”da millat turmush tarzini uch tarixiy o‘lchamda (kecha-bugun-ertada) gavdalantiradi.”¹ Asarda urushning tinch hayotga solgan dahshati, otanalar qalbiga yetgan ozor, front ortidagi hayotning achchiq haqiqatlari umuminsoniy pafos bilan tasvirlanadi. Adibning qahramonlari — oddiy xalq vakillari bo‘lib, ularning mardlik, sabr-toqat, vatanparvarlik, vafodorlik kabi fazilatlarini asarning asosiy g‘oyaviy yo‘nalishini belgilaydi. “Ikki eshik orasi” romani haqida Umarali Normatov quyidagicha fikr bildiradi: “Muallif, birinchi navbatda urushni qoralaydi, uning g‘ayriinsoniy mohiyatini ochadi. Uning jarohatlari ko‘p yillar mobaynida odamlarga ozor yetkazishini ko‘rsatadi. Shu bilan birgalikda, muallif oddiy odamlarning, ayniqsa, urush yillarida yorqin namoyon bo‘lgan fazilatlarini, vatanparvarligini, bardoshini, matonatini ko‘rsatadi”²

O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani o‘zbek adabiyotining sevib mutolaa qilinadigan asarlaridan biri bo‘lib, unda insonning tug‘ilish va o‘lim orasidagi murakkab hayot yo‘li falsafiy mushohada qilinadi. Muallif bu yo‘ldagi iztirob va quvonchlarni o‘ziga xos usulda — turli taqdirlar chizig‘ida ko‘rsatib beradi. Ana shunday rang-barang obrazlar tizimida jamiyatning ma’naviy tayanchi bo‘lib xizmat qilgan Orif oqsoqol siymosi alohida o‘rin tutadi. U shunchaki mahalla oqsoqoli emas,

¹ Do‘ysenboyev O.I. O‘tkir Hoshimov ijodida ona obrazi. Filol.f.n...diss.avtoref. – Toshkent, 2011. – B. 19.

² A.Rasulov “Ardoqli adib” 36-bet

balki No'g'ayqo'rg'on ahlini urushning qora kunlarida ma'naviy halokatdan asrab qolgan, odamlar qalbida ertangi kunga umid uyg'otgan rahbar va ziyoli timsolidir. Asarning ma'naviy yukini, asosan, ayollar obrazlari ko'tarib turadi. Ayol zoti tabiatan sabr va matonatdan yaralgan bo'ladi. Ko'pincha u hayotning beshafqat zarbalarini ko'z yoshlari bilan yuvib, ichki bir quvvat bilan yengib o'tishga intiladi. Biroq shunday og'ir qismatlar borki, ular ayolning ruhini sindirib, qalbini butunlay kulga aylantiradi. Bunday paytda insonning ruhi allaqachon mangu sukunatga ketgan, bu dunyoda esa faqat uning jonsiz xotirasi kabi harakatlanayotgan jismigina qolgan bo'ladi. Muallif Qora amma va Robiya orqali o'zbek ayolining bukilmas irodasini, sadoqatini va cheksiz mehrini ochib beradi. Qora amma obrazi orqali inson go'zalligi uning tashqi qiyofasida emas, balki qalbining kengligida ekanligi isbotlanadi. U shu qadar mehribon bo'ladiki, begona qizcha o'z bolasidek mehribonlik qiladi. "Qora xotin chopib kelib, meni bag'riga bosdi.—Beradi, jon qizim. Bermasin-chi, naq qulog'ini kesib olaman. Voy, bu qizning shirinligini! Oting nima?"³. Bundan tashqari, Qora amma olti farzandini tuproqqa berib, so'nggi jigarbandi Kimsanni el-yurt tinchligi uchun urushga kuzatgan onadir. U butun iztiroblari bilan millat fojiasini o'zida aks ettiradi. Qora amma farzandining kelishi kutib, umrining oxirigacha intizorlik bilan yashaydi uning bu kutishi inson irodasining va sadoqatining o'ziga xos haykali bo'lib qoladi. Muallif Robiya siymosini shunday nafis va jonli chizgilarda tasvirlaydiki, kitobxon uni shunchaki asar qahramoni emas, balki qismati ko'z o'ngida namoyon bo'layotgan tirik insondek his qiladi. Muallif qalami qizning qalb iztiroblarini shu qadar aniq va ta'sirchan chizib beradiki, har bir o'quvchi Robiyaning mahzun nigohlarini, uning unsiz faryodini o'z vujudida tuyadi. Robiya — asarning shunchaki bir qahramoni emas, u o'zbek qizining cheksiz sabri va mag'rur matonati timsolidir. Robiyaning nigohlarida ham baxt shodiyonasi, ham mahzunlik nolasi bor. Ammo bu baxt omonat bo'lib, uning hayotini lahzagina yoritdi, xolos. Taqdirning beshafqat zarbalari qoldirgan mahzunlik esa uning ko'ngliga bir umrlik jarohat bo'lib qoldi. Robiyaning sabrliligi shundaki, u boshiga tushgan eng og'ir judolikni — suygan yoridan ayrilish va o'zi sevmagan inson bilan umr yo'lini bog'lash majburiyatini isyonlarsiz, sukut bilan qarshi oladi. Uning bu sukunati taslim bo'lish emas, balki yaqinlarining xotirjamligi va onasining roziligi uchun o'z baxtini qurbon qilgan o'zbek qizidir. Uning muhabbati esa shunchaki tuyg'u emas, balki butun borlig'ini yoritib turuvchi muqaddas bir nur edi. Robiya o'z sevgisini "osmondagi yulduz"ga o'xshatadi. Uzoqdan yaraqlab turgan, goh yaqin, goh yetib bo'lmasdek ko'ringan bu yulduz uning hayot yo'lini yoritib turuvchi yagona chiroq edi. "Mening yulduzim - Kimsan akam edi. U oldinga keldi. Kaftimga qo'ndi"⁴. Ushbu muhabbatning fojiasi shundaki, qizning baxt yulduzi uning kaftiga qo'ngan, unga

³ "Ikki eshik orasi" 53-bet

⁴ "Ikki eshik orasi" 132-bet

yaqin bo'lgan bir paytda, urushning sovuq qo'llari uni shafqatsizlarcha yulib oladi. Robiyaning sevgisi Kimsanning o'limi bilan tugab qolmaydi u bu tuyg'uni bir umr yuragining eng chuqur yerida — hech kim ko'rmaydigan, ammo hamisha yonib turadigan armon sifatida saqlab o'tadi. Uning keyinchalik Shomurodga turmushga chiqishi esa, sadoqatning yangi bir bosqichidir — u o'tmishdagi sevgisiga xiyonat qilmagan holda, bugungi kundagi burchiga sodiq qoladi. Robiya o'tmishdagi pokiza tuyg'usiga dog' tushirmagan holda, bugungi kunning achchiq haqiqatiga, rafiqalik va onalik burchiga sodiq qoladi. U tanasi bilan yangi hayotda yashasa-da, ruhi bilan o'sha yorqin “yulduzi” yonida mangu qolgan ayoldir. Dunyoning beshafqat tegirmoni insoniyatni ayovsiz yanchib o'tarkan, eng avvalo, uning ichidagi mehrni qurbon qiladi. Oddiy, begubor insonlarning qo'pol va qattiqqo'l kimsalarga aylanishi — ularning tanlovi emas, balki chekkan iztiroblarining aks-sadosidir. Inson ruhan sinmaslik va mahv bo'lmaslik uchun qalbi atrofiga baland devorlar uradi, bu devorlar esa tashqaridan qaraganda juda sovuq va qattiq ko'rinadi. Xuddi shunday hayotiy qiyinchiliklar va urushning ayovsiz sinovlari tufayli qattiqqo'l ayolga aylangan Bashorat opa asar so'ngida o'zining yakka-yu yagona jigarbandidan ayriladi. U ne-ne umidlar, tish-tirnog'i bilan kurashib voyaga yetkazgan farzandining judoligi oldida ojiz qoladi. Bu fojining tub ildizi esa yana o'sha sovuq urushga borib taqaladi. Agar qonli urush bo'lmaganida, nafaqat Bashorat opaning hayoti boshqacha kechar, balki asarning yosh qahramonlari — Muzaffar va Munavvar ham o'z baxtiga erishgan bo'lar edilar. Muzaffar va Munavvarning fojiasini tahlil qilar ekanmiz, beixtiyor bir savol tug'iladi. Hammasiga faqat urush aybdormi? Yo'q, bu mudhish yakunning ildizlari Ra'noning qalbida ekilgan sadoqatsizlik urug'lariga borib taqaladi. Urush vaqtinchalik Shomurodni jismonan olib ketgan bo'lsa, Ra'noning irodasizligi va xiyonati yosh avlodning ma'naviy olamini vayron qildi. Agar Ra'no Shomurodga bergan va'dasida sobit turganida, asar oxiridagi qon-qarindoshlik chalkashliklari va ruhan o'limga teng ayriliq yuz bermas edi. Uning vaqtinchalik his-tuyg'ularga asir bo'lishi, o'z jigarbandini (Muzaffarni) begonalar qo'liga topshirib yuborishi — bularning barchasi yillar o'tib, gunohsiz farzandlarning baxtini bo'g'uvchi ayovsiz sirtmoqqa aylandi. Inson ba'zan shu qadar xudbinlik qilarki, o'z yaqinlarini va jigarbandlarini ham qurbon qiladi. “Ikki eshik orasi” asarida xiyonat urug'i faqat bitta qalbgga ekilmagan. Muallif bu ko'ngilsiz illatning naqadar yuqumli va ayovsiz ekanini Zuhra obrazi orqali yanada yaqqolroq ko'rsatib beradi. Asar avvalida u Orif oqsoqol xonadonining chinakam fayzi, iboli va iffatli o'zbek ayoli sifatida gavdalanadi. Zuhraning fojiasi shundaki, u nafaqat namunali kelin, balki qalbida zarracha gina saqlamaydigan qaynona mehriга sazovor bo'lgan baxtli ayol edi. Qaynonasi uni farzandsiz bo'lishiga qaramay, biror marta katta kelinidan ajratmagan, o'z jigarbandidek ardoqlagan edi. Biroq, hayotning beshafqat sinovlari va urushning uzoq davom etgan ayriliqlari bu nurli xonadon uzra zulmat boshladi. Haqiqiy o'zbek kelini timsoli bo'lgan Zuhra,

kutilmaganda barchani larzaga keltiruvchi xatoga qo‘l uradi. Uning o‘zga yigit bilan qochib ketishi — nafaqat sadoqatning sinishi, balki o‘ziga ona kabi talpingan qaynonasining mehri va Orif oqsoqol va Xolposh yanganing yuksak ishonchiga qilingan xiyonat edi. “Boyadan beri ayvon o‘rtasida cho‘zilib yotgan Xolposh xola yarq etib ko‘zini ochdi.—Dod! - dedi to‘lg‘anib Zokir! Bolam! Qandoq chidayman. Iloyo arvohing ursin, jon bolam! - Amallab qaddini rostladi-da, ko‘zi to‘la yosh bilan Zuhra kelinga yuzlandi. - U dunyo bu dunyo kosang oqarmasin,juvonmarg! Kun ko‘rib, kuni ro‘shnolik ko‘rmagin, imonsiz!”⁵. Zuhra misolida yozuvchi shuni uqtiradiki, ba‘zan inson qanchalik ardoqlanmasin, qanchalik mehr ko‘rmasin, uning ichki irodasi zaif bo‘lsa, u baribir nafsiga mag‘lub bo‘ladi. Zuhra o‘z xatti-harakati bilan nafaqat o‘zining, balki uni o‘z qizi kabi ko‘rgan insonlarning ham hayotini ostin-ustun qilib yubordi. Uning qismati — ishonchni suiiste‘mol qilishning achchiq natijasidir. Adib asar oxrida Quyosh tili bilan butun insoniyatga murojaat qilib, hayotning omonatligini shunday eslatadi: “Bir kiprik qoqgulik qisqagina umringizda tinch-totuv yashasalarig bo‘lmaydimi? Goh non talashasizlar, goh shon! Goh makon talashasizlar, goh imon? ... O‘z onangizni - Yer kurrasini adoyi tamom qilib tinchimoqchimisiz?!”⁶ Mazkur asar yillar o‘tsa-da, o‘zining badiiy qimmati va hayotiy falsafasini yo‘qotmay, hamisha yuksak e‘tiroflarga sazovor bo‘lib kelmoqda. Chunonchi, atoqli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov ta‘kidlaganidek, bu asar shunchaki urush haqida emas, balki inson ma‘naviyatining sinovi haqidagi badiiy romandir. Darhaqiqat, Robiyaning o‘lmas sadoqati va Zuhraning xiyonati o‘rtasidagi masofa inson irodasining naqadar nozik ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, “Ikki eshik orasi” — inson umrini tug‘ilish va o‘lim orasidagi qisqa, ammo bepoyon iztiroblar bilan yo‘g‘rilgan yo‘l sifatida talqin etadi. Bu omonat yo‘lda ba‘zilar o‘zidan yaxshilik va nur qoldirsa, ba‘zilar razillik va zulmat ichida bu eshiklardan o‘tishadi. Orif oqsoqol ta‘biri bilan aytganda, “Bir xil odamlar bor u eshikdan kirib, bu eshikdan chiqib ketayotganda qo‘lidan kelgancha savobli ish qiladi. Hayot degan imoratga aqalli bitta g‘isht qo‘yib ketadi. Yana bir xillari bor o‘sha imoratdan aqalli bitta g‘ishtni o‘g‘irlab ketgisi keladi. O‘g‘irlab-ku, hech qayoqqa borolmaydi, narigi eshikka borganda bari bir tashlab ketadi. Ikki orada imoratni buzgani qoladi...”⁷. Bundan tashqari, adib ushbu asari orqali urushni shunchaki tashqi

⁵ “Ikki eshik orasi” 349-bet

⁶ “Ikki eshik orasi” 555-bet

⁷ “Ikki eshik orasi” 598-bet

dushman emas, balki inson qalbini, irodasini va imonini ayovsiz yanchib o'tuvchi eng og'ir sinov sifatida tasvirlaydi. Asarda Robiyaning o'chmas sadoqati, Qora ammaning sarsun bo'lmas matonati va Bashorat opaning sovuq qattiqqo'lligi — Zuhra hamda Ra'noning irodasiz xiyonatlari bilan to'qnashadi. Ushbu his-tuyg'ularning ayovsiz kurashi orqali muallif har bir kitobxonni vijdon uyg'oqligiga, har bir qadam uchun mas'uliyatli bo'lishga chorlaydi. Asar xotimasidagi Muzaffar va Munavvar fojiasi — shunchaki ayriliq emas, balki o'tmishda yo'l qo'yilgan xatolarning, sadoqatsizlik va yolg'onlarning yillar o'tib gunohsiz farzandlar hayotini chilparchin qilishi haqidagi mudhish ogohlantirishdir. Bu fojia bizga shuni uqtiradiki, "Ikki eshik orasi"dagi qisqa yo'lda qilingan har bir qilmishning aks-sadosi kelajak avlodlar taqdirida, albatta, namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Rasulov Ardoqli adib. – Toshkent: “Sharq”, 2001. – 216 b.
2. O.Do'ysenboyev O'tkir Hoshimov ijodida ona obrazi. Filol.f.n...diss.avtoref. – Toshkent, 2011, 26 b.
3. O.Sharafiddinov.”Ikki eshik orasi” romani haqida
4. O'.Hoshimov Ikki eshik orasi: Roman. – Toshkent: “Sharq”, 2012. – 624 b.